

SOVET ITTIFOQI TARKIBIDAGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA NAZAR

Bibirajab Yuldosheva

t.f.f.d (PhD), Buxoro davlat universiteti dotsenti

Ferangiz Rahmatova

Buxoro davlat universiteti talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, xomashyo, mustamlakachilik, sanoat, qishloq xo'jaligi, sovet hukumati, paxtachilik, urush yillari, elektr energiyasi, og'ir sanoat.

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonning 20-80 yillardagi iqtisodiy ahvoli xususida so'z boradi. Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan mamlakat iqtisodiyoti va xalq xo'jaligi bir tomonloma rivojlantirilgan. Asosiy e'tibor paxta va paxtani qayta ishslash sanoati bilan bog'liq bo'lgan sohalarning ravnaqiga qaratildi. Og'ir sanoat tarmoqlari ham paxtachilik majmuasiga xizmat qiladigan sanoatga aylantirildi. Shuningdek oziq-ovqat, yoqilg'i, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, yengil sanoat tarmoqlari ham birmuncha rivojlangan.

Moddiy texnika vositalarining barchasi urush ehtiyojlarini qondirishga safarbar qilindi. Og'ir sanoat tarmoqlari esa o'q-dori, qurol-yarog'lar ishlab chiqarishga moslashtirildi. Mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan barcha erkaklar esa frontga safarbar etilganligi urushdan keyingi davrlarda ham O'zbekistonning iqtisodiyoti birmuncha rivojlanganligi, shunday bo'lsa-da, u Sobiq Ittifoqning asosan xomashyo yetkazib beruvchi o'liasi bo'lib qolaverганligi borasida so'z yuritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

KIRISH

O'zbekiston respublikasi sovetlar davrida markazga paxta xomashyosini yetkazib beruvchi asosiy hudud hisoblangan. Yetishtirilgan paxtaning tolasi Rossiyaning to'qimachilik fabrikalarida qayta ishlangan hamda tayyor mahsulotga aylangach ham ichki, ham tashqi bozorga chiqarilgan.

Ikkinci jahon urushidan keyin respublikada sanoat korxonalarining turi va soni ko'paygan, natijada yangi posyolka va shaharlarga asos solingan. Mirzacho'l va boshqa cho'llarning o'zlashtirilishi natijasida ekin maydonlar ancha kengayib, xalqning turmush darajasi ham muayyan darajada yaxshilangan. O'zbekiston iqtisodiyoti to'liq markaz manfaatlariga xizmat qilgan.

METODLAR

Tadqiqot mavzusi umum qabul qilingan tarixiy metodlar tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, tizimlilik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda O'zbekistonning sovetlar davridagi iqtisodiyoti, xalq xo'jaligi hamda sanoati tahliliy o'r ganilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida O'zbekistonning xalq xo'jaligi murakkab yo'lni bosib o'tdi. Darhaqiqat, XX asrda mamlakatimizning xalq xo'jaligi rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Mustamlakachilik yillarda O'zbekistonning iqtisodiyoti va xalq xo'jaligi bir tomonlama rivojlangan. Ya'ni, qishloq xo'jaligida paxta yetishtirishga, sanoatda esa paxta yalpi hosilini birlamchi qayta ishlashga asosiy e'tibor qaratildi [1].

Respublikada mavjud sanoatning 90 foizi qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Paxta bilan bog'liq sohalar tez rivojlangan. Jumladan, kimyo, qishloq xo'jalik mashinasozligi, kon sanoati, oltingugurt, tuz, molibden, grafit qazib olishga e'tibor berildi [2]. Sanoatning qolgan tarmoqlari ham paxta majmuasining rivoji bilan muvofiq ravishda rivojlandi. 1913-yilda mamlakatimiz hududida 425 ta sanoat korxonasi mavjud edi. Ularning 208 tasi paxta tozalash, 80 tasi oziq-ovqat, 14 tasi metallsozlik sanoat korxonalar bo'lgan. Qolganlari esa xumdon yasash, objuvoz va boshqa korxonalar edi.

1920-yillarning ikkinchi yarmida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida sezilarli o'zgarish yuz berdi. Og'ir sanoat tarmoqlari, eng avvalo paxtachilikka xizmat qiladigan sanoat, shu bilan birgalikda oziq-ovqat sanoati ham tez rivojlandi. 1928- yilda xususiy sektor hissasiga yirik sanoat mahsulotlarining 0,4 foizi to'g'ri kelgan [1]. Sanoat ishlab chiqarishning ijtimoiy tuzilishida ham o'zgarish yuz berdi. Sanoat sohalarining shiddat bilan rivojlanishi ijobiy hodisa bo'lsa-da, bundan dehqonlar katta zarar ko'rdi.

1921-yilning bahoriga kelib sovetlar oldida vayron bo'lgan qishloq xo'jaligini tiklash vazifasi turar edi. Chunki respublika daromadining asosiy qismini qishloq xo'jaligi berar edi. Shu bilan birga, dehqonlar aholining 80 foizini tashkil etgan. 1920-1921-yillarga kelib Turkistonda yer-suv islohoti amalga oshiriladi. Bundan ko'zlangan maqsad mahalliy aholi va boy rus dehqonlarni yer-suvga bo'lgan huquqini tenglashtirishdan iborat edi. Chunki o'sha davrda mustamlakachilar eng yaxshi va hosildor yerlarni rus dehqonlariga ajratib bergen edi [2].

1921-yildan e'tiboran O'zbekiston hududida sovet hukumati tomonidan "Sotsialistik qurilish" taktikasi yangilanib "Yangi iqtisodiy siyosat"ga o'tiladi. Mazkur jamiyat rejalarini amalga oshirishning muayyan imkoniyatlari ham paydo bo'ladi. Sovetlarga xos bo'lgan boshqaruv takomillashadi. Ishlab chiqarish vositalariga deyarli to'liq davlat mulki o'rnatiladi. Mulkiy munosabatlar ham tubdan o'zgarib, ishlab chiqarish va xalq xo'jaligi mollariga nisbatan markazlashtirish siyosati olib boriladi [2]. Bu davrga kelib bolsheviklar hamma narsani, ishlab chiqarish tarmoqlarini, mulk turlarini davlat tasarrufiga ola boshlagan edilar. Ular mazkur jarayonda o'lkadaning shart-sharoitni, yerli xalq irodasini inobatga olmadilar.

Sanoatning butun tarmoqlari davlat ixtiyoriga o'ta boshladi. 1920-yilning oxirlariga kelib, Turkistonda 1075 ta sanoat korxonasi zo'rlik bilan davlat tasarrufiga olindi. Aynan shu davrga kelib umumiyl mehnat majburiyati joriy etildi. Unga ko'ra, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan erkak va ayollar majburiy mehnatga jalb qilindi [3]. Ikkinchi jahon urushi davriga kelib esa respublikaning iqtisodiyoti harbiy izga ko'chirilgan, barcha moddiy texnika resurslari urush ehtiyojlarini qondirishga safarbar qilingan.

Mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan barcha erkaklar frontga safarbar etildi. Og'ir sanoatning ko'pgina tarmoqlari quroq-yarog' va o'q dorilar ishlab chiqarishga moslashtirildi [1]. 1941-1945-yillarda O'zbekistonga 90 ta sanoat korxonasi front hududlaridan ko'chirib keltirildi. Ularning ko'pchiligi asbobsozlik va mashinasozlik korxonalar edi [4]. Urushdan keyingi davrlarda ham sovet hukumatining mustamlakachilikka asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati davom etdi.

Ittifoqning oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalari O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1946-yil avgustida chiqarilgan 8-sessiyada qabul qilingan 1946-1950-yillarga mo'ljallangan rejada belgilangan. Bunga ko'ra, O'zbekistonda xalq xo'jaligining barcha sohalariga 3 mlrd 900 ming so'm kapital mablag'

ajratildi. Besh yillik rejada hududda elektr energiyasi ishlab chiqarishga e'tibor beriladi. Natijada 8 ta yirik va o'rta hajmdagi elektrostansiyalar, shu jumladan, Farhod elektr stansiyasi (300 000 kv soat kuchga ega) ishga tushurildi. Bu stansiya yirikligi jihatdan Sobiq Ittifoqda 3-o'rinni egallab, urushgacha O'zbekistonda ishlab chiqarilgan elektr quvvatiga teng quvvat beradigan bo'ldi [3].

Shuningdek, 1948-yilda Farhod GESning birinchi gidroagregati ishga tushirilgan. 1949-yil iyun oyidan umumiy quvvati 126 MVt bo'lgan 4 ta gidroagregatli stansiya to'la quvvat bilan ishlay boshladi, 1951-yilda bu majmua foydalanishga topshirilgan.

O'tgan asrning 50-80-yillar elektr energiyasi tarmog'i ham kengaytirildi. Shu bilan birga, yoqilg'i sanoati ham rivojlanadi. 1950-yillarda Surxandaryo viloyatidagi Sharg'un toshko'mir koni o'zlashtirilib, yuqori sifatlari ko'mir qazib chiqarila boshlandi. Qashqadaryo va Buxoro vohasi hududlarida gaz zaxiralarining topilishi va o'zlashtirilishi natijasida gaz sanoati ham rivojlanib bordi. Buxoroda 1956-yilda Gazli neft-gaz koni ochiladi. Geologik qidiruv natijasida esa O'rtabuloq, Muborak, Uchqir, Jarqoq, Qorovulbozor jami 100 dan ortiq neft va gaz konlari topilgan [4].

1950-yilga kelib amalga oshirilgan eng muhim tadbirlardan yana biri bu kolxozlarning yiriklashtirilishi bo'ldi. O'zbekistondagi mavjud 1777 ta mayda kolxozlarni yiriklashtirish natijasida 752 ta kolxozi tashkil etildi. 1953-1963-yillarda Markaziy Farg'ona cho'llarida 72,4 ming hektar yer o'zlashtirilishi natijasida 16 ta yangi kolxozi va 2 ta yangi sovxozi tashkil qilindi [5].

Respublikada bu o'rganilayotgan davrda qurilish sanoati ham taraqqiy etgan. Urushgacha bo'lgan davrda bir qancha kichik g'isht zavodlari, 1926-yilda esa Bekobodda Xilkova sement zavodi, 1932-yilda Quvasoy sement zavodi ishga tushirilgan. Shuningdek, sement, shifer, pardozlash plitalari, keramika quvurlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Hozirgi davrda qurilishda keng foydalaniladigan marmar va boshqa bezak toshlar tayyorlash ham taraqqiy etgan. O'zbekiston hududida 34 ta marmar koni mavjud. Ohangaron, Toshkent, G'azalkent, G'azg'on, Nukusda marmarni qayta ishslash, undan qurilish materiallari tayyorlash kombinatlari faoliyat yuritgan. Hududda yengil sanoatning rivoji uchun barcha sharoitlar mavjud bo'lsa-da, eng avvalo paxta, pilla, kanop xomashyolari yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Aholi tabiiy ko'payishining yuqori darajasi yengil sanoatni ishchi kuchi bilan ta'minlash imkonini beradi. Tez ko'payib borayotgan aholi yengil sanoat mahsulotlarining asosiy iste'molchisiga ham aylandi.

O'zbekistonda 107 ta paxta tozalash zavodi, quritish-tozalash sexlariga ega bo'lgan 490 ta paxta punklari mavjud bo'lgan. Buxoro, G'ijduvon, Juma, Namangan kabi paxta tozalash zavodlarining har biri 100 ming tonna paxtani qayta ishlay olgan. Oqibatda Markazga yillik 1,5 milion tonna paxta tolasi yetishtirib berilgan [7]. Respublikada bu davrda yirik sanoat korxonalari qurilgan bo'lsa-da, ular mustaqil ravishda tayyor mahsulot ishlab chiqara olmagan. Ularning aksariyati Rossiya va Ittifoqning g'arbiy respublikalaridagi korxonalariga qaram edi [6].

O'zbekistonda metallurgiya sanoati ham rivojlangan. Masalan, Bekobot, Toshkent, Chirchiq shaharlarida qora metallurgiya, Olmaliq, Navoiy, Uchquduq shaharlari rangli metallurgiya markazlari sifatida rivojlandi. 1962-yilda "O'zbekiston metallurgiya kombinati"da po'lat quyish qurilmasi ishga tushirildi. 50-yillarda Olmaliq-Angren tog'sanoat rayonida qo'rg'oshin, volfram, molibden va boshqa nodir metal konlari topildi va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati buniyod etildi. Kombinatda ishlab chiqarish obyektlarini rivojlantirish 80-yillarda ham davom ettirildi [4]. 1980-yillargacha O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyot davrini boshdan kechirib birmuncha yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, u asosan xomashyo qazib beruvchi o'lka bo'lib qolaverdi.

Chor Rossiyasi va Sovet davlati o'zining 125 yillik faoliyati davomida atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan foydalanish, ekotizimni asrash, ekologik muammolarni o'rganish va bartaraf etish masalalariga panja ortidan qarab kelgan. Chunki mustamlakalardan iqtisodiy manfaat olish asosiga qurilgan davlat boshqaruvi xo'jalikning barcha sohalarida ekstensiv usulni qo'llaydi. Bunday tizimda

tabiiy resurslar bor kuchi bilan sanoat va iqtisodiyot uchun xizmat qiladi [11].

XULOSA

Sovetlar davrda Respublikamiz Sovet Ittifoqining asosiy xomashyo bazasi bo'lib qolgan, iqtisodiyot va sanoat ham asosan qishloq xo'jalik ehtiyojlariga xizmat qilgan bo'lsa-da, O'zbekistonning Sovet davri tarixi muayyan yo'qotishlar va fojialar bilan birga, katta qurilishlar va sanoat korxonalari buniyod etilgan davr hamdir. Aynan shu davrda O'zbekiston zamonaviy qishloq xo'jaligi respublikasiga aylantirildi. Bu yillarda iqtisodiyot bilan birgalikda madaniyat, maorif, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohalarida ham muayyan yutuqlarga erishildi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya – Toshkent, 2004. – B 234.
2. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi –Toshkent, 2010. – B 205.
3. Ergashov Q., Hamidov H. O'zbekiston tarixi – Toshkent, 2015. – B 329.
4. Shamsutdinov R., Mo'minov H. O'zbekiston tarixi – Toshkent, 2013. – B 473.
5. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi – Toshkent, 2016. – B 323.
6. Zokirjon Saidboboyev. Tarixiy geografiya – Toshkent, 2010. – B 178.
7. Yuldasheva, B., & Muxtorova, S. (2023). O'RTA OSIYONING IBTIDOIY JAMOA DAVRIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 504-508.
8. Bibirajab Yo'ldasheva, & Sharipova Parizod. (2023). Markaziy Osiyo Tarixida Amir Temur Shaxsining O'rni. *Miasto Przyszlosci*, 41, 424–429.
9. Yuldasheva, B., & Feruza, R. (2023). IX–XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI IJTIMOIY-IQDISODIY VOQEALAR TARIXIY-GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 356-359.
10. Sh, Y. D. (2022). THE IMPORTANCE OF DEPOSIT BANKS IN COMMERCIAL BANKS. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(5), 14-17.
11. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНинг БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржоновна, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.
12. Yuldasheva, B. M. (2022). SOMONIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHAR MADANIYATINING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA MUNOSABAT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1307-1313.
13. Burxonov, S., Khamidov, O., & Yavmutov, D. (2023). Buxoro viloyatida sug 'oriladigan yerlardan samarali foydalanish muammolari va ularni yaxshilash yo 'llari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 41(41).
14. Yavmutov, D. S., & Adxamovich, X. X. (2023). YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Uzbek Scholar Journal*, 18, 34-39.
15. Явмутов, Д. Ш., Бурхонов, Ж., & Каримова, К. (2023). ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ ҚЎЛЛАШДА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ ВА УНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЖОРИЙ ҚИЛИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 2(10).
16. Yuldasheva, B. M. ., & Islomova, S. J. qizi . (2023). IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyasi. *Miasto Przyszlosci*, 41, 132–135